

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA SARIMSOQPIYOZ YETISHTIRISHDA PIYOZNI
DONALARGA AJRATUVCHI QURILMAGA BO‘LGAN TALAB DARAJASI**

Norchayev D. R.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, fan doktori.

Quralov S. D.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot institute tayanch doktoranti.

Sarimsoqpiyoz guldoshlar oilasi, Allium avlodiga mansub o‘simlik bo‘lib, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Misr, Shimoliy Afrika, O‘rta Osiyo, Markaziy va Janubiy Yevropa, AQSH, Meksika va Turkiyada sarimsoqpiyoz yetishtirish boshqa davlatlarga nisbatan keng tarqalgan. Dunyo bo‘yicha sarimsoqpiyoz yalpi hosilining 70 foizidan ortig‘i Xitoy, Hindiston, AQSH, Turkiya, Pokiston kabi davlatlarda yetishtiriladi.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida sarimsoq piyozning 3 ta “Yujno-fioletoviy”, “Chidamli”, “Mayskiy VIR” navlari ekiladi.

“Yujno-fioletoviy” navi (Kechpishar). O‘suv davri 90-94 kun. Piyozboshning o‘rtacha vazni 23-25 g. Yassi yumaloq, siyohrang, yaxshi saqlanadi. Kuzgi muddatda yetishtirishga moyil, gulpoya hosil qiluvchi navlar hisoblanadi. O‘zbekistonda 1972-yil Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda ekish uchun tavsiya qilingan.

“Chidamli” navi (Ertapishar). O‘suv davri 95-100 kun. Piyozboshning o‘rtacha vazni 15-18 g. Yassi yumaloq, oq-sarg‘ish, yaxshi saqlanadi. O‘zbekistonda 2016-yil Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida Surxondaryo viloyatida ekish uchun tavsiya qilingan.

“Mayskiy VIR” navi (Ertapishar). O‘suv davri 99-103 kun. Piyozboshning o‘rtacha vazni 18-20 g. Yassi yumaloq, oq-sarg‘ish, yaxshi saqlanadi. Piyoz boshlari yetilishi bilanoq yig‘ishtirib olinishi maqsadga muvofiq. Chunki bu ish kechiktirilsa, hosil yig‘ishda sarimsoq boshlari pallalariga ajralib, sochilib ketadigan bo‘lib qoladi, hosil sifati pasayadi. O‘zbekistonda 1978-yil Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda ekish uchun tavsiya qilingan.

Ekishdan avval maydon avvaldan ekilgan ekin qoldiqlari va begona o‘tlardan tozalanadi. 1 sotixga 150–200 kg (10 sotixga 1.5-2 t) chirigan go‘ng solinadi. Yer 20–25 sm chuqurlikda yumshatilib, yirik kesaklar maydalangach, yaxshilab tekislanadi va sug‘orish egatlari olinadi. Sarimsoq pallalari yirik-maydaliliga qarab 10 sotix yerga 100–150 kilogramdan ekiladi. Odatda sarimsoq pallalari yirik va ekish me‘yori ortishi bilan hosildorlik ham yuqori bo‘ladi. 2–3 qator qilib ekilganda egatlar orasi 50–60 sm, egatlardagi qatorlar orasi 10–15 sm, qatordagi urug‘liklar orasi 6–8 sm bo‘ladi va chuqurligi 3–4 sm qilib ekiladi. Ba‘zan har bir egatga 3 qatordan yoki egatning kengligiga qarab 4-5 qator qilib ham ekilishi mumkin. Bu sug‘orish tizimiga ham bog‘liq. Shuningdek egatlar kengligi 70 sm, qatorlar orasi 20-25 sm, ko‘chatlar orasi 10-15 sm qilingan holda ham ekish mumkin. Bunday holda ekishdan

dehqonlarimiz hozirda eksport qilish maqsadida foydalanmoqda. Shuningdek urug'likni katta hajmlisi tanlab olinishi hisobiga ekish uchun sarflanayotgan sarimsoqpiyoz 10 sotix yerga 150-200 kilogramni tashkil etmoqda. Buning uchun 10 sotix yerga 70 protsenti yirik hajmga ega bo'lgan o'rtacha 200-280 kilogram pallalarga ajratilmagan sarimsoq piyozboshi kerak bo'ladi. Umuman ekish texnologiyasi yerning unumdorligi, sug'orilish tizimi, yerga ishlov beruvchi texnikalar va boshqa jihatlarga qarab tanlanadi.

Sarimsoq kuzda, sovuq tushguncha 1–2 marta sug'oriladi, bahor-yozda o'simliklarni 5–6 marta sug'orish, qator oralarini yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish, chopiq qilish, gulpoyalarini sindirib tashlash, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish va chirindi bilan mulchalash hosildorlikni ancha oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi web saytidagi ma'lumotlardan shularni xulosa qilishimiz mumkinki, sarimsoqpiyoz asosan pallasidan ekiladi. Ekishdan uch-to'rt kun oldin pallalarga ajratiladi, saralanadi, kasallangan, ezilgan hamda maydalari ajratib tashlanadi. Sarimsoqni o'rtacha va o'rtachadan kattaroq, ya'ni og'irligi 2-6 grammdan kam bo'lmagan pallalari ekiladi. Shuni aytish kerakki, qancha yirik pallalar ekilsa, hosil shuncha yuqori bo'lishi tajribalarda isbotlangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib shuni aytishimiz mumkinki, har bir gektar yerga 1-1,5 tonna sarimsoqpiyoz ekilishini hamda O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 4-martdagi 121-sonli "Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish va 2021-yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish to'g'risida"gi qarorining 3-ilovasida O'zbekiston hududida sentabr-oktabr oylarida 6772 gektar dala maydonlarida va 1 807 gektar issiqxonalarda, jami 8579 hektar maydonga sarimsoqpiyoz ekilishi prognoz etilganligini inobatga olib hisoblashimiz mumkinki Respublikamiz hududida bir yilda taqriban 7 721 – 11 153 tonna sarimsoqpiyoz urug'i ekiladi. Bu ko'rsatgichdan va sarimsoqpiyozni piyozboshdan ajralgandan so'ng unuvchanlik sifati pasayib borishi hamda hosildorlikning yo'qolishi xususiyatiga ega ekanligi va shu bois piyozboshdan ajralgan sarimsoqpiyoz donalarini ko'pi bilan 4 kun ichida ekilishini zarurligini inobatga olib mamlakatimiz qishloq xo'jaligida, xususan, sarimsoqpiyoz yetishtirishda sarimsoqpiyozni donalarga ajratuvchi qurilmaga talab yuqori ekanligini xulosa qilishimiz mumkin.

Bir gektar yerga ekiladigan sarimsoqpiyozning o'rtacha arifmetik qiymati = $\frac{900+1300}{2} = 1200$ kg.

Har bir dehqon xo'jaligi yoki fermer xo'jaligi o'rtacha 5 gektar sarimsoqpiyoz ekishini taxmin qilsak bir fermer = $5 \times 1200 = 6000$ kg urug'lik ekadi.

$$n = \left[\frac{8579 * 1200}{6000} \right] = 1715$$

Bu yerda n – sarimsoqpiyoz yetishtiradigan dehqon xo'jaligi va fermer xo'jaliklari taxminiy soni.

Agar bitta qurilmadan 2 ta fermer yoki dehqon xo'jaligi foydalanadi deb hisoblasak:

$$N = \left[\frac{n}{2} \right] = \left[\frac{1786}{2} \right] = 857$$

N – respublikamizda Sarimsoqpiyozni donalarga ajratuvchi qurilmaga bo'lgan talab.

Xulosa.

Mamlakatimiz hududi sarimsoq yetishtirish uchun qulayligi, hamda sarimsoqpiyozning suvga talabchanligi yuqori emasligi, almashlab ekish va yerdan butun yil davomida unumli foydalanish uchun qulayligi kabi xususiyatlaridan unimli foydalangan holda yuqori hosildorlikga erishish zarur. Shu bila birgalikda sarimsoqpiyozni yetishtirishda mavjud bo'lan muammolarni yechish, jumladan, qo'l mehnatiga barham beruvchi sarimsoqpiyozni donalarga ajratuvchi qurilmaga ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydagi "Respublika xududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4709-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi web sayti <https://www.agro.uz/sarimsoq/>.
4. "Agro-olam.uz" rasmiy sayti: <https://agro-olam.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 4-martdagi 121-sonli "Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish va 2021-yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish to'g'risida" nomli qarori.
6. "Respublikamizda sarimsoqpiyoz mahsulotini yetishtirishda mexanizatsiyalashgan qurilmagalarga bo'lgan ehtiyoj va uning samarasi" Quralov Srojiddin Doniyorovich. «Қишлоқ ва сув хўжалигининг замонавий муаммолари» мавзусидаги анъанавий XXII – ёш олимлар, www.tiame.uz магистрантлар ва иқтидорли талабаларнинг илмий-амалий анжумани. Тошкент - 2023 йил www.tiame.uz